

ARAB TILIDA KELISHIK KATEGORIYASI

Baxtiyorova Durdona Nusrat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

dbaxtiyorova19@gmail.com

Umurzakova Aygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi kelishik kategoriyasining grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kelishiklarning turlari va ularning kelishiklarda turlanishi o'rganiladi. Maqolada ism so'z turkumidagi so'zlarning bosh kelishik (رفع), qaratqich kelishigi (جر), tushum kelishigi (نصب)dagi holatlari va ularning grammatik funksiyalari amaliy misollar yordamida yoritiladi. Tadqiqot arab tili grammatikasini o'rganayotgan talabalar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, kelishik kategoriyasi, bosh kelishik (رفع), qaratqich kelishigi (جر), tushum kelishigi (نصب).

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические и семантические особенности категории падежей в арабском языке. Исследуются виды падежей и их изменения в рамках системы склонения. В статье рассматриваются состояния слов из имени существительного в именительном (رفع), родительном (جر) и винительном (نصب) падежах, а также их грамматические функции, которые освещаются с помощью практических примеров. Исследование служит важной теоретической и практической основой для студентов, изучающих арабскую грамматику.

Ключевые слова и фразы: арабский язык, категория падежей, именительный падеж (رفع), родительный падеж (جر), винительный падеж (نصب).

Annotation. This article analyzes the grammatical and semantic features of the case category in the Arabic language. The study explores the types of cases and their variations in declension. It examines the states of words in the noun category in the nominative case (رفع), genitive case (جر), and accusative case (نصب), as well as their grammatical functions, illustrated with practical examples. This research serves as an important theoretical and practical foundation for students studying Arabic grammar.

Keywords and phrases: Arabic language, case category, nominative case (رفع), genitive case (جر), accusative case (نصب).

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning grammatikasi milodning VIII-IX asrlarda yaratilgan. Shuning uchun ham uning grammatikasi boshqa tillarning, ayniqsa, o'zbek tili grammatikasidan tubdan farq qiladi.

Arab tilida uchta soʻz turkumi mavjud. Bular: اسم (ism), فعل (fe'l) va حرف (harf). Arab tili grammatikasi murakkab va boy tizim boʻlib, uning asosiy elementlaridan biri kelishik kategoriyasidir. Kelishik (الإعراب) arab tilida ism soʻz turkumidagi soʻzlar jumlada qanday funksiyalarni bajarishini belgilaydi va u oʻzbek tili grammatikasidan farqli oʻlaroq, uch asosiy holatda namoyon boʻladi:

- bosh kelishik (رفع),
- qaratqich kelishigi (جار),
- tushum kelishigi (نصب),

Oʻzbek tilidagi qolgan kelishiklar vazifasini esa predloglar bajaradi.

Soʻzlarning oxiridagi harakatlari baʼzan gap mazmuniga qarab oʻzgarishi yoki oʻzgarmasligi ham mumkin. Bunda oxiridagi harakati oʻzgaruvchi soʻzlar “moʻrob” (معرّب), oxiridagi harakati oʻzgarmas soʻzlar esa “mabniy” (مبني) boʻladi.

Oʻzgaruvchi soʻz fe'l soʻz turkumiga mansub boʻlsa, u holda, u ُ (domma), َ (fatha) va ْ (sukun)ga oʻzgarishi mumkin. Agar oʻzgaruvchi soʻz ism soʻz turkumiga oid boʻlsa, u ُ (domma), َ (fatha) va ِ (kasra) ga oʻzgaradi.

Arab tilida kelishik (الإعراب) otlarning jumladagi oʻrnini va boshqa soʻzlar bilan bogʻliqligini ifodalaydi. Kelishiklar ot va fe'ning semantik vazifasiga bogʻliq holda ishlatiladi.

Bosh kelishik (رفع)

Soʻzning qaysi kelishikda ekanligini uning oxiridagi harakatidan bilish mumkin. Agar soʻz bosh kelishikda boʻlsa, u holda, u ُ (domma) yoki َ (tanvin domma) harakati bilan tugaydi. Soʻzning domma yoki tanvin domma bilan tugashi uning aniq yoki noaniq holatda ekanligini koʻrsatadi. Agar soʻz ال (“al”), yaʼni aniqlik artiklini olgan boʻlsa, u holda tanvin dommaning oʻrnida oddiy domma keladi.

Qaratqich kelishigi (جر)

Agar soʻz qaratqich kelishigida kelgan boʻlsa, u ِ (kasra) yoki ٍ (tanvin kasra) harakati bilan tugaydi. Bunda ham kasra yoki tanvin kasra bilan tugashi uning aniq yoki noaniq holatda ekanligini koʻrsatadi.

Tushum kelishigi (نصب)

Agar soʻz tushum kelishigida boʻlsa, u holda, u َ (fatha) yoki ِ (tanvin fatha) bilan nihoyalanadi. Bu ham noaniq yoki aniq holatdaligiga qarab fatha yoki tanvin fatha bilan yoziladi.

Bu turlanish uch kelishikli turlanish hisoblanadi va shu tariqa uch kelishikda turlanadigan soʻzlar uch kelishikli soʻzlar deyiladi. Jins tomonlama ham ikkala jinsdagi, yaʼni muzakkar va muannas jinsdagi soʻzlar bir xil tarzda turlanadi. Masalan:

- | | | |
|-------------------------|-----------|---------|
| • Bosh kelishikda | دَفْتَرٌ | شَقَّةٌ |
| • Qaratqich kelishigida | دَفْتَرٍ | شَقَّةٍ |
| • Tushum kelishigida | دَفْتَرًا | شَقَّةً |

Bu soʻzlar noaniq holatda. Agar soʻz tushum kelishigida kelsa va tanvin fatha bilan tugasa, u holda, soʻz oxiriga alif qoʻshiladi. Lekin soʻz ة (“ta marbuta”) yoki hamza bilan tugasa, alif qoʻshilmaydi.

Aniq holatda esa “al” artikli qo‘shiladi va oxiridagi tanvinli harakatning o‘rnini oddiy harakatlar, ya’ni domma, kasra yoki fatha egallaydi. Bunda so‘z tushum kelishigida kelganda tanvin fathaning o‘rnida oddiy fatha bo‘lgani sababli so‘z oxiriga alif qo‘shilmaydi. Masalan:

- | | | |
|-------------------------|------------|-----------|
| • Bosh kelishikda | الشَّكَّةُ | الدَّقْتُ |
| • Qaratqich kelishigida | الشَّكَّةِ | الدَّقْتِ |
| • Tushum kelishigida | الشَّكَّةَ | الدَّقْتَ |

Ikki kelishikli otlar (ممنوع من الصرف)

Arab tilining o‘zbek tilidan yana bir farqi shundaki, arab tili ba’zi so‘zlar borki, ularda qaratqich va tushum kelishiga bir xil qo‘shimchaga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlar faqat ikkita kelishikda turlanadi va ikki kelishikli so‘zlar deb ataladi. Bunday so‘zlarga:

1. “Al” artiklini qabul qilmay, tanvinsiz kelsa ham aniq holatda deb hisoblanadigan so‘zlar, ya’ni ba’zi atoqli otlar (kishilar, joy nomlari) kiradi. Masalan:

طشَقْنَدُ - Toshkent, فَاطِمَةُ - Fotima va boshqalar.

2. “Al” artiklini qabul qilishi mumkin bo‘lgan, noaniq holatda ham tanvinsiz tugaydigan birlikdagi sifatlar yoki otlar kiradi. Masalan:

أَبْيَضُ - oq, صَحْرَاءُ - sahro va boshqalar.

3. Noaniq holatdagi sinik ko‘plikdagi otlar va sifatlar kiradi. Masalan:

عَوَامِلُ - omillar, أَقْرَبَاءُ - qarindoshlar va boshqalar.

Bu so‘zlar bosh kelishigida kelgan bo‘lsa, domma bilan, agar qaratqich yoki tushum kelishigida kelgan bo‘lsa, fatha bilan tugaydi. Noaniq holatda tanvin bilan tugamaydigan so‘zlar aniq holatda yozilganda “al” artiklini olib, har uchala kelishikda ham turlanadi va uch kelishikli so‘zga aylanib ketadi.

Arab tilidagi kelishik kategoriyasi grammatik tizimning markaziy elementi hisoblanadi. Kelishiklarning turlari, ularning shakllanish qoidalari va sintaktik vazifalari arab tilining boy grammatik tuzilishini aks ettiradi. Ushbu maqola kelishik kategoriyasini o‘rganishda asosiy nazariy va amaliy manba sifatida foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdujabborov A. Arab tili. Darslik. – Toshkent, 2005, (76-77-betlar).
2. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019, (53-bet).
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (56-59 betlar).
4. Rahmatullayeva R. Arab tili darsligi. – Toshkent, 2008, (73-bet).
5. www.arabic.uz